



MODERN MODELS OF ENSURING THE NATIONAL SECURITY OF UZBEKISTAN

Sitora S. Latipova

Master's student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: sitora.latipova98@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: National security, Declaration of Independence, geopolitics, soft power, threat, Defense Doctrine, territorial integrity, foreign policy.

Received: 11.05.23

Accepted: 13.05.23

Published: 15.05.23

Abstract: Ensuring national security takes an important place in protecting the country's independence, constitutional system, territorial integrity, economic, scientific-technical and defense power from illegal aggression. This article analyzes the priorities of protecting the national security of the Republic of Uzbekistan, the factors that are important for Uzbekistan to pay attention to ensure the national and regional security.

O'ZBEKISTON MILLIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY MODELLARI

Sitora S. Latipova

Magistratura talabasi

Toshkent davlat Sharqshunoslik Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: sitora.latipova98@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Milliy xavfsizlik, Mustaqillik Deklaratsiyasi, geosiyosat, yumshoq kuch, tahdid, Mudofaa Doktrinasi, hududiy yaxlitlik, tashqi siyosat.

Annotatsiya: Milliy xavfsizlikni ta'minlash mamlakat mustaqilligini, konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy butunligini, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va mudofaa qudratini g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilishda muhim o'rin egallaydi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari, unga tahdid soluvchi omillar hamda O'zbekistonning milliy-mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda e'tibor qaratishi muhim bo'lgan omillar tahlil qilinadi.

**СОВРЕМЕННЫЕ МОДЕЛИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА****Ситора С. Латипова***студент магистратуры**Ташкентский государственный университет востоковедения**Ташкент, Узбекистан**E-mail: sitora.latipova98@mail.ru.***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: национальная безопасность, Декларация независимости, геополитика, мягкая сила, угроза, оборонная доктрина, территориальная целостность, внешняя политика.	Аннотация: Обеспечение национальной безопасности играет важную роль в защите независимости страны, конституционного строя, территориальной целостности, экономической, научно-технической и оборонной мощи от незаконной агрессии. В данной статье анализируются приоритеты обеспечения национальной безопасности Республики Узбекистан, факторы, которые ей угрожают, и факторы, на которые Узбекистану важно обратить внимание при обеспечении национальной и региональной безопасности.
--	---

KIRISH

Davlatning xalqaro huquq subyekti sifatida tan olinishi va uning kelgusidagi xalqaro munosabatlardagi o'rnini belgilashda, ushbu mamlakat fuqarolarining huquqlarini har tomonlama ta'minlash, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-texnikaviy va harbiy qudratini namoyon etish va rivojlantirish ushbu mamlakatning milliy xavfsizligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir.

Rossiyalik siyosatshunosning N.A. Kosolapovning ta'rifiga ko'ra, milliy xavfsizlik - bu uzoq vaqt davomida saqlanishi mumkin bo'lgan barqarorlik, eng muhim real tahdid va xavflardan yetarlicha oqilona dinamik himoya holati, shuningdek, bunday muammolarni tan olish va ularni o'z vaqtida zararsizlantirish uchun zarur choralarni ko'rish qobiliyatidir.

ASOSIY QISM

Milliy xavfsizlik atamasi XX-asrning boshlarida paydo bo'ldi va Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidentining Kongressga murojaatida Panama kanali hududini bosib olishning mantiqiy bo'limida ishlatilgan. Kelajakda milliy xavfsizlik mamlakatning hududiy yaxlitligi, suvereniteti, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa asoslarini saqlab qolish va xalqaro munosabatlar tizimining mustaqil subyekti sifatida harakat qilish qobiliyati sifatida talqin etila boshlandi.

O'zbekistonda milliy xavfsizlikni ta'minlashning tashkil etishning huquqiy asoslari mustaqillikka qadam qo'yilgan dastlabki yillardan boshlangan.

“O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini mustahkamlash, uning hududida barqarorlikni ta‘minlash, mamlakatimizning jahon xo‘jaligi tizimida va jahon hamjamiyatida munosib joyni egallashiga erishish — davrimizning asosiy vazifasidir” , - deb bu masalaning ahamiyatini ko‘rsatib bergan edi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov. Shuning uchun, dastlabki yillardan boshlab milliy xavfsizlikni ta‘minlash konsepsiyasini ishlab chiqish, uning asosini yaratuvchi qonunlarni yaratish ishlari amalga oshirildi. Milliy xavfsizlik masalasida yagona davlat siyosati bo‘lishiga, barcha siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy, harbiy, huquqiy va boshqa chora-tadbirlarning uyg‘unlashgan tizimini yaratishga erishish yo‘lidan borildi.

Milliy xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha davlat siyosati va uning uzoq yillarga mo‘ljallangan strategiyasi tamoyillari 1995-yil 24-fevralda bo‘lib o‘tgan Oliy Majlisning sessiyasida aniq bayon qilib berildi. 1996-yil 24-aprelda Oliy Majlis sessiyasida “Milliy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonun muhokamaga qo‘yildi. 1997-yil avgust oyida bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis sessiyasida esa, Respublikaning milliy xavfsizlik konsepsiyasi qabul qilindi.

Bundan tashqari, xavfsizlik masalalarini ko‘zda tutuvchi tegishli moddalar Konstitutsiya ham qayd etildi. Shuningdek, 1995-yil 30-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi” to‘g‘risidagi qonun hujjati qabul qilindi.

Ushbu hujjatlar O‘zbekiston milliy va mintaqaviy xavfsizligini ta‘minlashga zamin yaratdi va barcha muammolarni bartaraf etishda huquqiy asosiy bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekiston milliy xavfsizligiga tahdid soluvchi omillarni tahlil qilar ekanmiz, dastlab mamlakatdagi mavjud ichki omillarni ko‘rib chiqish lozim. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida 16 diniy konfessiyaga mansub 2 281 diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ulardan 2097 tasi islomiy, 167 tasi xristian, 8 tasi yahudiy, 6 tasi bahoiy jamoalari, bittadan Krishnani anglash jamiyati va Budda ibodatxonasi. Bulardan tashqari konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekistonliklarni o‘z safiga jalb etayotgan diniy ekstremistik guruhlar sifatida asosan “Jihadchilar”, “Tahvid va jihad katibasi”, “Hizbut tahrir” oqimi qayd qilinmoqda. Mamlakat prezidentining 2019-yildagi tashabbusi bilan “Mehr” operatsiyasi amalga oshirish boshlandi. Jumladan, “Mehr” insonparvarlik operatsiyasi ilk bor 156 nafar o‘zbekistonlik, asosan, ayollar va bolalar Suriya poytaxti Damashqdan maxsus reys bilan O‘zbekistonga olib kelingan. 2019-yilning oktabr oyida esa Yaqin Sharqdagi mojarolar hududidan o‘zbekistonliklarni qaytarish bo‘yicha ikkinchi maxsus operatsiya amalga oshirilgan. 2020-yilning dekabrda uchinchisi maxsus operatsiya doirasida Suriyadan 25 nafar ayol va 73 nafar bola, 2021-yildagi “Mehr-4” operatsiyada esa 24 nafar fuqaro Afg‘onistondan O‘zbekistonga qaytarilgan. 2021-yilning 30-aprelda amalga

o'shirilgan "Mehr -5" operatsiyasi doirasida Yaqin Sharq va Afg'onistondagi qurolli to'qnashuvlar hududlaridan 93 nafar ayol va ularning bolalari qaytarib olib kelindi.

Ikkinchidan, mamlakatdagi korrupsiyaviylik darajasi, davlat boshqaruvidagi shaffoflikka ta'sir ko'rsatishi va aholi o'rtasida norozilikka sabab bo'lishi mumkin. Transparency International xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan Korrupsiyani qabul qilish indeksining 2022-yildagi ko'rsatkichlariga ko'ra, 180 ta davlat orasida O'zbekiston 31 ball bilan 126-o'rinni egalladi. Mamlakat ballarini 3 taga oshirib, o'rnini 14 pog'onaga yaxshilashga (2021-yilda 140 o'rin) muvaffaq bo'ldi.

O'zbekiston mazkur indeksda so'nggi 6 yil davomida o'sish suratlarini qayd etayotgan davlat sifatida Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasining aksilkorrupsiya islohotlarini tizimli ravishda amalga oshirayotgan davlatlar qatorida qayd etildi.

Uchinchidan, qo'shni mamlakatlar bilan mavjud bo'lgan chegaralar (demarkatsiya, delimitatsiya) muammosi, ushbu hududlarda yashovchi aholi noroziligiga bu orqali esa butun mamlakat xavfsizligiga tahdid solishi mumkin.

O'zbek-qozoq chegarasidagi masalalar 2022-yilning dekabr oyida Qozog'iston prezidentining O'zbekistonga davlat tashrifi davomida ikkala davlat rahbarlari o'rtasidagi muzokaralar davomida ittifoqchilik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida shartnoma va O'zbekiston-Qozog'iston davlat chegarasini demarkatsiya qilish to'g'risida shartnoma imzolandi.

Qizg'iziston bilan mavjud muammolarni hal etish uchun 17-noyabr kuni Qirg'iziston Jogorku Keneshi Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasidagi qirg'iz-o'zbek davlat chegarasining ayrim uchastkalari to'g'risidagi shartnomani va ikki davlat hukumatlari o'rtasida Kampir-obod (Andijon) suv ombori suv resurslarini birgalikda boshqarish to'g'risidagi bitimni ratifikatsiya qilish to'g'risidagi qonun loyihalarini qabul qildi.

Joriy yilning 23-30-yanvar kunlari Dushanbe shahrida O'zbekiston-Tojikiston qo'shma demarkatsiya komissiyasi ishchi guruhlarining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda O'zbekiston-Tojikiston davlat chegarasining loyiha demarkatsiya chizig'idan o'tkazish masalalari, shuningdek, demarkatsiya xaritalarini yaratishning texnologik jarayoni muhokama qilindi. Muzokaralar doirasida O'zbekiston-Tojikiston va davlat chegaralarining alohida uchastkalarida dala o'rganish ham o'tkazildi.

O'zbekiston milliy xavfsizligini ta'minlashda Afg'oniston faktori alohida o'ringa ega. Mintaqaga chegara masofasi, madaniyat va aholi tarkibi bo'yicha eng yaqin bo'lgan ushbu davlatdagi hokimiyat uchun kurash, nobarqaror davlat boshqaruvi va yaxlit tashqi va ichki siyosatning yo'qligi O'zbekiston milliy xavfsizligiga tahdid soluvchi omillardan hisoblanadi.

XULOSA

Yuqoridagi omillardan kelib chiqib, O‘zbekiston milliy xavfsizligini ta’minlashda quyidagilarni xulosa qilish mumkin bo‘ladi:

birinchidan, huquqiy asos - milliy xavfsizlikni ta’minlash tizimining asosiy elementlaridan biri bo‘lib, eng asosiy huquqiy asos -konstitutsiyaviy asoslardir. Huquqiy tartibga solish sohasi va darajasiga ko‘ra eng ahamiyatli qoidalar konstitutsiyaviy normalarda qayd etiladi hamda oliy yuridik kuchga ega bo‘ladi;

ikkinchidan, mamlakatning hududiy yaxlitligi va barqarorligini ta’minlash orqali tashqi tahdidlardan himoyalanih muhim omil sanaladi. Buning uchun, siyosiy menejmentdagi ijtimoiy-siyosiy boshqaruv metodlari, bevosita va bilvosita ta’sir ko’rsatish uslublaridan foydalanish talab etiladi;

uchinchidan, millatchilikka xos salbiy xususiyatlarni yagona mafkuraviy g’oya va huquqiy hamda iqtisodiy islohotlar tufayli bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Qonun va qonunosti hujjatlarida etnik kamchilik vakillari va birlashmalarning haq-huquqlari, ularning boshqaruv vakolatlarini ushbu davlat manfaatlariga zid kelmagan holda shakllantirish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Косолапов Н.А., Богатуров А.Д., Хрусталеv М.А. Очерки теории и политического анализа международных отношений. М.: Научно образовательный форум по международным отношениям, 2002. – 384 bet.
2. Калашникова Т.А. О проблеме продовольственной безопасности РФ // Ростовский научный журнал. – 2017. – № 4. – 105–113 betlar.
3. Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. — T.: O‘zbekiston. 1995. - 57 58-betlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-y., 9-son, 180-modda.
5. Ortiqbek Yunusov, Diniy ishlar bo‘yicha qo‘mita vakili nutqi: religions.uz. URL: <https://religions.uz/uz/news/detail?id=443>. Murojaat vaqti: 11.04.23
6. “Mehr” insonparvarlik operatsiyasi – bag‘rikenglik va olijanoblik ifodasi: president.uz. URL: <https://president.uz/oz/2605>. Murojaat vaqti: 11.04.23
7. “МЕХР-2”: Ироқдан 64 бола юртимизга олиб келинди: uza.uz. URL: <https://uza.uz/uz/posts/iro-dan-zbekistonga-64-nafar-bola-olib-kelindi-10-10-2019>. Murojaat vaqti: 11.04.23
8. “Мехр-3” операцияси доирасида Суриядан 25 нафар аёллар ва 73 нафар болалар юртимизга олиб келинди. URL: <https://uzreport.news/society/me-r-3-operatsiyasi-doirasida-suriyadan-25-nafar-ayollar-va-73-nafar-bolalar-yurtimizga-ol>. Murojaat vaqti: 11.04.23.

9. Mehr operatsiyasi-4. URL: <https://surviib.uz/oz/news/mehr-operatsiyasi-4>. Murojaat vaqti:11.04.23

10. «Mehr-5» operatsiyasi: 93 nafar o‘zbekistonlik Suriyadan olib kelindi. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2021/04/30/mehr/>. Murojaat vaqti:11.04.23.

11. Corruption perceptions Index: URL:<https://www.transparency.org/en/cpi/2022/>. Murojaat vaqti:11.04.23.

12. “Strategik sheriklikni mustahkamlash va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan hujjatlar imzolandi”. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/5781>. Murojaat vaqti:14.04.23.